

Fan: Matematika

Sinf: 4

Mavzu: O'atilganlarni mustahkamlash.

Darsning texnologik xaritasi

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: Tenglamalar. Vaqt.Masofa.Tezlik.

Mavzuning qisqacha mazmuni O'rganilgan materialni mustahkamlash. Ularga doir misol va masalalar yechish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod: Interfaol, masq, namoyish qilish, mustaqil ishlash.

Shakl: Guruh bilan ishlash

Jihoz: Mavzuga oid rasmi misollar, masalaga oid plakat, shakllar.

Nazorat: ,Uy vazifasini tekshirish, og'zaki so'rov, doskada va mustaqil ravishda misollar yechish, masalani birgalikda tahlil qilib yechimini topish.

Baholash: Doskada yoki mustaqil ravishda misol, masala yechishi , faolligiga qarab o'quvchilar baholanadi.

Darsning maqsadlari:

Ta'limiy: O'quvchilarning o'tgan mavzular yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash.Misol, masala yechish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Tarbiyaviy: Vaqt qadriga yetish, undan unumli foydalanish bo'yicha hayotiy ko'nikmalarini takomillashtirish.

Rivojlantiruvchi: Murakkab tenglamalar ustida fikr-mulohaza yuritishga jalb qilish orqali mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish.

Kutilayotgan natija:

O'atilgan mavzular bo'yicha misollarni yechish ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar, shakllarni qismlarga bo'lishni uddalay oladilar.

Dars jarayoni va texnologiyasi

Dars bosqichi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich. Tashkiliy qism	O'quvchilarning davomati aniqlanadi. O'quvchilarning darsga hozirligi tekshiriladi.		1 minut
2-bosqich. Ehtiyoj(refleksiya) larni aniqlash.	Kirish suhbat	Munozara	2 minut
3-bosqich. O'tgan mavzuni mustahkamlash.	Uy vazifani tekshirish.	Savol-javob	3 minut
4-bosqich.	Ko'rgazma asosida misollar	amaliy	5minut

	yechish.		
5-bosqich. Darslik bilan ishlash.	O'quvchilar bilan birgalikda 694-masala bajariladi.	Mustaqil ish, savol-javob.	10 minut
6-bosqich	Dam olish daqiqasi	harakatli	5-minut
7-bosqich	Murakkab tenglamalar yechish	amaliy	15-minut
8-bosqich. Baholash	Darsdagi faolligiga qarab o'quvchilar baholanadi.		2 minut
9-bosqich. Uyga vazifa berish.	698-699- –misollar uyga vazifa sifatida topshiriladi, bajarish yuzasidan tegishli ko'rsatma beriladi		2 minut

Dars jarayoni

1-bosqich texnologik xarita asosida o'tiladi.

2-bosqich. Kirish suhbatini uyushtirish.

Matematika fani

Aqlimizni charxlaydi

U fanlar otasi

Ta'riflarni oqlaydi.

Matematika shohi Xorazmiy bobomizdir

Al Jabrni kashf qilgan

Buyuk ajdodimizdir.

3-bosqich. Uy vazifasini tekshirish:

692-masala.

Bor edi: Bo'yi-65sm

Eni-76sm

Kesib olindi: Bo'yi-52sm

Eni-37sm

Qoldi-? kv sm

Yechish: $65 \times 76 = 4940$ (kv.sm)

$52 \times 37 = 1924$ (kv.sm)

$4940 - 1924 = 3016$ (kv.sm) qoldi.

693-misol.

$620 - x = 80$ $x + 120 = 400$ $x : 9 = 14$ $30 * x = 270$

$X = 540$ $x = 280$ $x = 126$ $x = 9$

4-bosqich.

O'tilgan mavzularni mustahkamlash.

Quyondalar uchun sabzi terish. Sabzilar orqasida misollar berilgan.

Qaysi guruh 1-bo'lib misollarni to'g'ri yechish.

$$4280*97 \qquad 6095*62 \qquad 7020*69$$

$$8040*36 \qquad 5470*47 \qquad 8240*37$$

$$5147*27 \qquad 9050*35 \qquad 6780*39$$

5-bosiqch.

Darslik bilan ishlash.

694-masala sharti og'zaki tahlil qilinadi va yechiladi.

Birinchi avtomobil—9 soat

Ikkinchi avtomobil—4 soat

Tezliklari bir xil

Birinchi avtomobil ikkinchisidan—320 km ortiq

Har bir avtomobil--? km

Yechish: $9-4=5$ (soat)

$$320:5=64 \text{ (km/soat)}$$

$$64*9=576 \text{ km}$$

$$64*4=256 \text{ km}$$

Javob: 1-avtomobil 576 km, ikkinchi avtomobil 256 km.

O'quvchilar 695-696-misollarni mustaqil yechadilar va natijani tekshiradilar.

6-bosqich.

Dam olish daqiqasi.

Ingliz tilida she'r, harakati bilan.

7-bosqich.

Tenglamalar yechish va natijalarini tekshirish.

$$900-x*40=600$$

$$c*8+9344=24520$$

$$b*5+796=1021$$

Son qatnashgan maqollar musobaqasi.

--Sanamay sakkiz dema.

--Yetti o'lchab bir kes.

--Bilimli ming yashar

--Bilimsiz bir yashar

--Yigit kishiga yetmish hunar oz.

...

8-bosqich: darsdagi faolligiga qarab o'quvchilarni bilimlarini baholash va rag'batlantirish. Savollar orqali darsga yakun yasash.

9-bosqich: Uyga vazifa: 698-699-misollar topshirish yuzasidan tegishli ko'rsatma berish.